



## IMPROVING PROCEDURAL MECHANISMS FOR CHECKING THE ADMISSIBILITY OF EVIDENCE BY THE INVESTIGATIVE JUDGE AT THE PRE-TRIAL STAGE

**Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo ugli**

Lecturer, Department of Legal Sciences, National University of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: [sultonbekahmadjonov@gmail.com](mailto:sultonbekahmadjonov@gmail.com) ORCID:

<https://orcid.org/0009-0006-9706-3842> Tel: +998939661336

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20508450>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2026

Online: 31<sup>st</sup> May 2026

### KEYWORDS

*Investigative judge,  
admissibility of evidence,  
inadmissible evidence,  
judicial control, Criminal  
Procedure Code, French  
experience, torture,  
procedural filter.*

### ABSTRACT

*The thesis analyzes the role of the newly introduced institution of the investigative judge in verifying the admissibility of evidence in criminal proceedings. The author identifies the lack of a mechanism for "filtering" illegally obtained evidence at the pre-trial stage as a primary issue. Based on the experiences of France and Italy, and the views of international scholars (M. Damaška, M. Delmas-Marty), it is proposed to grant the investigative judge the authority to declare evidence inadmissible by amending Articles 95-1 and 405-11 of the Criminal Procedure Code.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРОВЕРКИ ДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ СЛЕДСТВЕННЫМ СУДЕЙ НА СТАДИИ ДОСУДЕБНОГО ПРОИЗВОДСТВА

**Ахмаджонов Султонбек Шукурилло угли**

Преподаватель кафедры «Юридические науки» Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека E-mail: [sultonbekahmadjonov@gmail.com](mailto:sultonbekahmadjonov@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9706-3842> Тел: +998939661336

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20508450>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2026

Online: 31<sup>st</sup> May 2026

### KEYWORDS

*Следственный судья,  
допустимость  
доказательств,  
недопустимые  
доказательства,  
судебный контроль,  
Уголовно-  
процессуальный кодекс,  
опыт Франции, пытки,  
процессуальный  
фильтр.*

### ABSTRACT

*В тезисе анализируется роль вновь введенного института следственного судьи в проверке допустимости доказательств в уголовном процессе. Автор выделяет в качестве основной проблемы отсутствие механизма «фильтрации» незаконно полученных доказательств на стадии досудебного производства. На основе опыта Франции и Италии, а также мнений международных ученых (М. Дамашка, М. Дельмас-Марти), предлагается наделить следственного судью полномочиями по признанию доказательств недопустимыми путем внесения изменений в статьи 95-1 и 405-11 УПК.*



**SUDGA QADAR ISH YURITISHDA TERGOV SUDYASI TOMONIDAN  
DALILLAR MAQBULLIGINI TEKSHIRISHNING PROTSESSUAL  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

"Huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [sultonbekahmadjonov@gmail.com](mailto:sultonbekahmadjonov@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0006-9706-3842>

Tel: +998939661336

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20508450>

**ARTICLE INFO**

Received: 24<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2026

Online: 31<sup>st</sup> May 2026

**KEYWORDS**

*Tergov sudyasi, dalillar maqbulligi, nomaqbul dalillar, sud nazorati, Jinoiy-protsessual kodeks, Fransiya tajribasi, qiynoqlar, protsessual filtr.*

**ABSTRACT**

*Tezida jinoyat protsessida yangi joriy etilgan tergov sudyasi institutining dalillar maqbulligini tekshirishdagi o'zni tahlil qilingan. Muallif sudga qadar ish yuritish bosqichida noqonuniy olingan dalillarni "elakdan o'tkazish" mexanizmi mavjud emasligini asosiy muammo sifatida ko'rsatadi. Fransiya va Italiya tajribasi hamda xalqaro olimlar (M. Damaška, M. Delmas-Marty) fikrlari asosida JPKning 95<sup>1</sup>- va 405<sup>11</sup>-moddalariga o'zgartirish kiritish orqali tergov sudyasiga dalillarni nomaqbul deb topish vakolatini berish taklif etilgan.*

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlarining yangi bosqichi sifatida jinoyat protsessiga "tergov sudyasi" institutining joriy etilishi shaxs huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish ko'lamini tubdan kengaytirdi.

28.01.2025-yildagi O'RQ-1022-sonli qonunga binoan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda – JPK) yangi 31<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirildi. Unga asosan tergov sudyasiga bir qator vakolatlar, jumladan, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq

sakkiz soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; va boshqa shunga o'xshash vakolatlar yuklatildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri sudyaning xolisligiga ta'sir qilmaslik va uning ish hajmini kamaytirish hisoblanadi.

Ma'lumki, jinoyat ishining taqdirini hal etishda JPK talablariga muvofiq holda olingan, tekshirilgan va baholangan dalillar isbot qilishda asosiy rol o'ynaydi. Agarda dalillar mumkin bo'lmagan yo'llar, qonunchilikka zid usullar orqali olingan bo'lsa nomaqbul dalil deb hisoblanishi va dalillar majmuasidan chiqarilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid



jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida qayd etilishicha, "Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonun normalarini aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko'ra yuz berganligidan qat'iy nazar, shu yo'l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi. Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan JPK 82 — 84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas"<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda mavjud qonunchilik va amaliyotdan kuzatishimiz mumkinki jinoyat ishida dalillar nomaqbulligi masalasi faqatgina tergov paytida tergovchi, sud paytida ishni o'ziga olgan sudya tomonidan hal etiladi. Advokatlar hamda jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan, jinoyat ishi bo'yicha ayblov xulosasi tasdiqlanib sudga yuborilgan paytda sudga nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash to'g'risida iltimosnoma kiritish mumkin. Shu paytda sud ushbu dalillarni chiqarib tashlash bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazadi.

Muammo shundaki, qiynoq orqali yoki Jinoyat-protsessual tartib-qoidalarga rioya etilmasdan olingan dalillar sudgacha jinoyat ishida saqlanadi. Chunki, dastlabki tergov yoki surishtiruv paytida advokat yoki

tarafdardan biri tomonidan qaysidir dalilni jinoyat ishidan chiqarib tashlash bo'yicha qilingan e'tiroz aksar holatlarda qanoatlantirilmaydi, balki ko'rib chiqilmasligi ham mumkin. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksida surishtiruv va dastlabki tergov paytida advokatning iltimosnoma bildirish huquqi, ko'rib chiqilish tartibi va muddatlari, u keltirib chiqaradigan oqibat haqida maxsus normalar mavjud emas.

Amaldagi JPK 31<sup>1</sup>-moddasiga qaraydigan bo'lsak, unda tergov sudyasiga dalillarni tekshirish, baholash, nomaqbul dalillarni ajrim chiqarish orqali jinoyat ishidan chiqarib tashlash, dalilni nomaqbul deb topish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish vakolati berilmagan. Natijada, dalillar taqdirini hal etish asosan surishtiruvchi, tergovchi va ishni ko'rib hukm chiqaradigan sudyaning ixtiyorida qolmoqda.

Xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Fransiyada dalillarni nomaqbul deb topish mexanizmi "Nullités de l'information" ya'ni "tergovning haqiqiy emasligi" deb nomlanadi. Dalillarni nomaqbul deb topish ikki xil usulda amalga oshiriladi. Birinchi usulda, tergov sudyasi tergovni shaxsan olib boradi hamda ish davomida politsiya tomonidan inson huquqlariga hamda qonunchilikka zid tarzda olingan dalilni nomaqbul deb topib, ishdan chiqarib tashlaydi. Ikkinchi usulda, apellyatsiya sudining tergov palatasiga kiritilgan iltimosnomaga muvofiq qaysidir dalil ish hujjatlari orasidan chiqarib tashlanadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Oliy Sud Plenumi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3895986>

<sup>2</sup> Fransiya jinoyat protsessual kodeksi. [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section\\_lc/L/EGITEXT000006071154/LEGISCTA000006151893/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/L/EGITEXT000006071154/LEGISCTA000006151893/)



Italiyada ham xuddi Fransiya va boshqa ko'plab kontinental huquq davlatlari singari tergov sudyasi funksiyasi va vakolatlari ancha keng hisoblanadi. Jumladan, Italiya Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra qonun buzilgan holda olingan dalillardan foydalanish mumkin emasligi va bu holat protsessning har qanday bosqichida (shu jumladan tergov sudyasi tomonidan) e'lon qilinishi shartligi ko'rsatilgan<sup>3</sup>.

Fikrimizga dalil sifatida bir qator mashhur, Jinoyat-protsessual huquq bo'yicha olimlar fikrlarini keltirish o'rinli. Masalan, Fransiyalik mashhur huquqshunos, Sorbonna universiteti professori Mirey Delmas-Martining fikriga ko'ra, tergov sudyasi nafaqat "ayblov" yo'nalishida, balki "himoya" uchun ham ishlashi kerak. Uning fikricha, noqonuniy olingan dalillar tergov bosqichidayoq "elakdan o'tkazilishi" shart, aks holda sud muhokamasi o'zining adolatli tabiatini yo'qotadi<sup>4</sup>.

Yana bir mashhur olim, Yel universiteti professori Mirjan Damaškaning fikricha, agar tergov sudyasi noqonuniy olingan dalillarni chetlashtirish vakolatiga ega bo'lmasa, butun sud jarayonining daxlsizligi u hali sud zaliga yetib bormasidanoq xavf ostida qoladi<sup>5</sup>.

Statistikaga qaraydigan bo'lsak, 2017-yilda 27 nafar, 2018-yilda 7 nafar va 2019-yilning 5 oyida 7 nafar shaxs qiynoqqa solish va boshqa shu kabi noqonuniy xatti-harakatlarni sodir

etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan<sup>6</sup>. Ushbu ko'rsatkichlar tergov ustidan sud nazorati faqat ehtiyot choralarini qo'llash bilan cheklanib qolayotganini, dalillarning qonuniyligini tekshirish mexanizmi esa hanuzgacha "post-factum" (kechiktirilgan) xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Agarda "tergov sudyasi" instituti avvalroq joriy etilganda edi bu kabi jinoyatlarni sodir etishning oldi olinardi. Masalan, qiynoqqa uchragan gumonlanuvchi tergovga qadar tekshiruv paytidan boshlab tergov sudyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri gaplashish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar qiynoq alomatlarini topgan tergov sudyasi ish hujjatlaridan ba'zi dalillarni olib tashlash vakolati mavjud bo'lsa adolat yanada tezroq qaror topgan, xalqda qonunchilikka nisbatan hurmat va ishonch yanada yuksalgan bo'lardi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, afsuski hozirgi kunda aksar holatlarda tergov sudyalarining asosiy roli sanksiya berish va iltimosnomalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib qolmoqda. Jinoyat protsessida dalillarni tekshirishda tergov sudyalarining rolini yanda kuchaytirish maqsadida JPKga kerakli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritishni lozim deb hisoblaymiz.

Birinchiidan, amaldagi JPK 95<sup>1</sup>-moddasidagi "...prokuror yoki sudya dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo'l qo'yilgan buzilish nimada

<sup>3</sup> Italiya jinoyat protsessual kodeksi. <https://www.altalex.com/documents/codici-altalex/2014/10/30/codice-di-procedura-penale>

<sup>4</sup> Delmas-Marty M. The European Convention on Human Rights... Cambridge University Press.

<sup>5</sup> Damaška, M. R. (1986). *The Faces of Justice and State Authority: A Comparative*

*Approach to the Legal Process*. Yale University Press

<sup>6</sup> Bosh prokuror o'rinbosari bergan intervyusidan olingan statistika. Aziz Qarshiyev maqolasi. Manba: <https://kun.uz/33342658#!>



aniq ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart” jumlasidagi “...prokuror yoki sudya ...” so‘zlariga “*tergov sudyasi*” jumlasini ham qo‘shish kerak.

Ikkinchidan, JPK 405<sup>11</sup>-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha ifodalash lozim: “Iltimosnoma jinoyat ishi sudga ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi bilan birga yuborilganidan keyin, ayblov dalolatnomasining yoki ayblov xulosasining ko‘chirma nusxasi olingan kundan e‘tiboran uch sutka ichida berilishi mumkin. *Agar iltimosnoma tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida, hali ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi tuzilmasdan avval berilsa jinoyat ishi yuritilayotgan tuman tergov sudyasi tomonidan 48 soat ichida ko‘rib chiqilishi va dalillar taqdiri haqida ajrim chiqarilishi lozim. Chiqarilgan ajrim ustidan huddi shu sud orqali shikoyat yoki protest keltirilishi mumkin.*”.

Uchinchidan, yuqoridagi ikki taklifni inobatga olgan holda JPK umumiy qismidagi, tergov sudyasining vakolatlari (JPK 31<sup>1</sup>-modda) tarkibiga “dalilni nomaqbul deb topish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish va dalilni maqbul yoki nomaqbul deb e‘tirof etish bo‘yicha ajrim chiqarish” vakolatini protsessual jihatdan mustahkamlab qo‘yish lozim bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, dalillarning maqbulligi masalasi sudga qadar ish yuritish bosqichida tomonlarning iltimosnomasiga ko‘ra tergov sudyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkinligi, tergov sudyasi sud tergov boshlanguniga qadar haqiqiy “filtr” vazifasini bajarishi maqbul dalillar yordamida haqiqatni aniqlash va odil sudlovni amalga oshirishda muhim tayanch vazifasini o‘taydi.

### References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 01.04.1995-yil. <https://lex.uz/docs/-111460>
2. “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Oliy Sud Plenumi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3895986>
3. Fransiya jinoyat protsessual kodeksi. [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section\\_lc/legitext000006071154/legiscta000006151893/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/legitext000006071154/legiscta000006151893/)
4. Italiya jinoyat protsessual kodeksi. <https://www.altalex.com/documents/codici-altalex/2014/10/30/codice-di-procedura-penale>
5. Delmas-Marty M. *The European Convention on Human Rights...* Cambridge University Press.
6. Damaška, M. R. (1986). *The Faces of Justice and State Authority: A Comparative Approach to the Legal Process.* Yale University Press